



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/DZGC3656

БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ
ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ

Р.Ниёзметова

ТДЎТАУ профессори, пед.фан.доктори

Аннотация: Мақолада табиат тасвири билан инсон руҳияти уйғунлиги ифодаланган айрим асарларга эътибор қаратилган, таҳлилга тортилган.

Калит кўзлар: поэзия, лирика, қаҳрамон туйғулари, руҳий ҳолат, "Даҳшат", ўтмишни идеал тасвирлаш, "Баҳор қайтмайди", "Кеча ва кундуз" асари.

Abstract: The article focuses on and analyzes some works that express the harmony of the image of nature and the human psyche.

Key words: poetry, lyrics, hero's emotions, mental state, "Horror", ideal depiction of the past, "Spring Will Not Return", "Night and Day".

Аннотация: В статье рассматриваются и анализируются некоторые произведения, выражающие гармонию образа природы и психики человека.

Ключевые слова: поэзия, лирика, эмоции героя, душевное состояние, «Ужас», идеальное изображение прошлого, «Весна не вернется», «Ночь и день».

Сўз ўзганинг ҳолатини, руҳиятини, қалбини англаш воситасидир. Сўз - инсон сезгиларини ўзгага юқтирадиган сеҳрли қурол. Сўз - ички ва ташқи дунёнинг инсонга хос таржимони. Аммо унинг бу фазилатлари фақат тафаккур отига мингачгина эришилади, холос. Бинобарин, аёл зоти - хушбичим либоси, дарё - қирғоғи, табиат эса дов-дарахтлари билан гўзал ва тўқис бўлганидек, сўз ҳам теран, таъсирчан, ақл ва қалбан англанадиган маъноси билан ҳаётбахшдир.

Табиат тасвири китобхонга асар қаҳрамонлари руҳиятини яққол очиб беради, уни ҳаётнинг паст-баландини, аччиқ-чучугини, яъни тасвирланаётган воқеликни чуқур англаш ва ҳис этишга тайёрлайди. Оддий баён бундай имкониятларга эга эмас: у хабар бера олади, холос. Бадий асарда табиат тасвиридан фойдаланиш адабиётдаги кенг қамровли масала ҳисобланади. Ёзувчилар ўз асарларида қаҳрамонларнинг туйғуларини ифодалар эканлар, табиат тасвири ҳам ўша руҳий ҳолатга мос равишда ифодаланади. Масалан, Абдулла Қаҳҳор қаламига мансуб "Даҳшат" ҳикоясини олсак. Ҳикоя шиддатли шамоли тасвири билан бошланади. Кеч кузак шамоли манзараси чизилади: "Яқин икки ҳафтадан бери кўз очирмаётган кузак шамоли яйдоқ дарахтлар шохиди чийиллайди, ғувиллайди; томларда вишиллайди, ёпиқ эшик ва дарчаларга бош уриб уф тортади"¹⁷³. Асар қаҳрамонларининг ўзаро суҳбатида ҳавонинг бузуқлиги, қалбларга кўркўв солиши муаллиф томонидан жуда жонли тарзда ифода этилган. Унсининг ўша вақтдаги руҳий ҳолати анчайин

¹⁷³Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. I жилд. 1988 йил.



тушкун, алланечук қалби азобларга тўлганди. Додхоҳ эса ўзи табиатан жизсаки, кўпол ва хотинга ўч кимса сифатида тасвирланади.

Табиат тасвири гўёки, бўлиб ўтаётган воқеанинг, шунингдек, келгусида бўлиши мумкин бўлган воқеаларнинг даракчисидай туюлади. Кейинги ҳолатда у асарнинг тезиси вазифасини бажаради, деб ҳисоблаш мумкин. Муаллиф табиатнинг даҳшатли манзарасидан дарҳол одамлар орасидаги муносабатлар тасвирига кўчади. Китобхон диққатини Олимбек додхоҳнинг уйига жалб этади. Додхоҳ келиши билан хотинлари тўзиб қолгани, бири салласини ечгани, бири чакмонига қўл узатгани, яна бири маҳсисини тортишга чоғлангани, келин бўлиб тушганига беш ойгина бўлган кенжа келин – Унсиннинг чилим солиб тутгани тасвирини маҳорат билан чизади. Мана шу қисқа тасвирдан додхоҳнинг қандай кимса экани ойдинлашади. Унинг зулмкор, зўравон экани ўқувчи кўз олдида яққол гавдаланади.

Умуман, персонаж руҳиятини очишда ёзувчи табиат тасвиридан фойдаланиш ўринларини жуда кўп бадиий асарларда учратишимиз мумкин.

Олимхон додхоҳ эркакка эришмоқчи, мустақиллигини қўлга киритмоқчи бўлган Унсиннинг ёнига ўз маймунини юборади. Чунки қўл остидаги қулининг эркакка эришишини хоҳламайди. Қадимда бойлар маймун боққан экан. Шу сабаб маймум образи келтирилган. Олимхон додхоҳ бой эди.

Ўша даврда аёллар оёқости қилинган. Қул сифатида қаралган. Аёлларга мустақиллик берилмаган. Бир паранжи ортида ҳам аёлнинг ўзи топталган, ҳам унинг эрки топталган. Ҳозирга келиб эса барча давлатлар гендер тенглиги деб жар солмоқда, Бугунги кун аёллари умуман ўзини Унсиннинг ўрнига қўёлмайди, ҳолатини тасаввур ҳам қилолмайди: ҳозирги кун аёллари кундош билан бир жойда бўлишни фожеа деб биладиган, бундай ҳаёт уларнинг тасаввурига ҳам сиғмайди.

Унсин - иродали, қўрққанида жасоратли, чўрткесар. Унсин қўрқувдан ҳушини йўқотиб қўймаслик учун қандай йўл тутди? Сиз нима қилган бўлардингиз? Унсин енгилдими? Иродали, эркакпарвар одамни енгиш мумкинми? Сиз нима деб ўйлайсиз, ўлмоқ енгилмоқми? Сиз Унсинга қандай маслаҳат берган бўлар эдингиз?

“Даҳшат” ҳикояси мазмуни асосида тақдим этиладиган юқоридаги каби савол ва топшириқларнинг барчасига синфдаги ҳамма ўқувчилардан жавоб талаб қилиш шарт эмас. Муҳими, ўқувчилар шу ҳақда ўйлаб кўрадилар, ўзларини ҳам ақлан, ҳам руҳан зўриқтирадилар. Савол ёшларнинг кўнгилларига кириб боради. Бу, албатта ўз натижасини беради. Буни ўқитувчи маълум вақт ўтгач англай бошлайди.

Ўткир Ҳошимовнинг "Баҳор қайтмайди" асарида ҳам табиат тасвири қаҳрамон туйғуларига мос тушади. Асар табиат тасвири билан бошланади. *"Бўстон қишлоғига оғир вазмин қадамлар билан куз кириб келди. Туманлик кўйнида жимгина мудраган тонглار, илк совуқ оғушида жунжиккан*



серюлдуз оқшомлар бошланди. Ҳавога елпиғичдай қат-қат булутлар чиқди”¹⁷⁴. Бу тасвир, аввало, ўқувчини асар воқеалари юз берадиган жой билан таништиради. Кеч кузнинг сокин тарзда тасвирланиши кейинги воқеалар ривожига ишора қилгандек бўлади. Шунингдек, Алимардоннинг тоби қочиб, бепарво, лоқайд ётганида ҳам, табиат тасвири унга ҳамоҳанг ифода топади. Чунки ташқарида ёмғир ёғар, баъзи кунлари ёғмаса ҳам ҳаво анча совиб кетган эди. Ҳовли ёнғоқ баргларида тўлиб-тошиб кетган эди. Табиатнинг бу тасвири орқали ҳам уйда аёл киши йўқлиги, боз устига онасидан айрилгани Алимардонни азоблаётгани, ушбу ҳолат унинг юрагини эзаётгани англашилади.

Асар охирида Алимардоннинг ўғлини кўриш учун Муқаддамнинг қишлоқдаги хонадонига боргани, фарзанди Шавкатнинг ўз отасидан қочиб, онасига талпингани, бегона бир инсонни ота деганидан қаттиқ изтиробга тушгани – ушбу руҳий ҳолати маҳорат билан тасвир этилган. Айниқса, Алимардоннинг фожиали ўлимини ёзувчи табиат тасвирига монанд чизгиларда беради: *“Кўкда момақадироқ фарёд солди. Чақмоқнинг бир лаҳзалик совуқ нури ғамгин бош эгиб турган тоғларни, ёмғирдан ялтираб кетган қизғиш қояларни, йўлнинг шундай чеккасидан тик тушиб кетган жаҳаннам жарлигида илондай биланглаб оқаётган сойни ёритиб ўтди. Аммо унинг кўзлари ҳеч нимани кўрмас, тасаввурида фақат бир нарса – ўз отасидан ётсираб, йиғлаб, уйга қочиб кириб кетган Шавкат. Унинг силкиниб бораётган дўмбоқ қўлчалари турар, аламдан вужуди қалтираб, оёғи оғриганига қарамай, бор кучи билан газни босар эди... Зум ўтмай даҳшатли сурон тоғ-тошларни ларзага солди. Ғамгин қоялар қилиб қўйган гуноҳидан ўзи кўрқиб кетгандай инграб юборди...”*¹⁷⁵.

Ҳудудсиз табиат оғушида инсон, наҳотки, бир зарра мисоли бўлса; вақтнинг шафқатсиз одимлари қаршисида, оний умрини ўйлаганда, ўлим олдида шунчалик нола сезадими; йўқса, бир мартагина берилмиш ушоққина умрнинг мазмуни нимада; инсон ўзининг табиат билан боғлиқлигини қандай ҳис этади? Ана шу масалаларга берилган поэтик жавобдан биз бугунги замондошларимиз характери, маънавий-психологик дунёсининг бойлигидан, фаолиятининг ижтимоий аҳамиятидан воқиф топамиз. Бугунги кунда табиат ва инсон мавзуси ўзининг ижтимоий-иқтисодий ҳамда маънавий моҳиятига кўра ҳам ана шундай долзарб масалалардан бири сифатида муҳим характер касб этади. Ушбу масалага ҳар бир соҳа вакиллари ўзига хос тарзда ёндашмоқда ва унга жавоб изламоқда.

Табиат тасвири орқали қаҳрамон руҳиятини ифодалаш Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романида ҳам ўзига хос ҳолда тасвирланган. *“Ҳар йил бир келадиган баҳор севинчи яна кўнгилларни қитиқлай бошлади. Яна табиатнинг дилдираган танларига илиқ қон югурди...Толларнинг кўм-кўк*

¹⁷⁴ Ҳошимов Ў.Танланган асарлар.Тошкент, Шарқ, 2009, I жилд, 23-бет

¹⁷⁵ Ҳошимов Ў.Танланган асарлар.Тошкент, Шарқ, 2009, I жилд,131-бет.



сочпоуклари қизларнинг майда ўрилган кокилларидай селкиллаб тушмоққа бошлади. Муз тагида лойқаланиб оққан сувларнинг ғамли юзлари кулди, ўзлари ҳорғин-ҳорғин оқсалар-да, бўшалган қул сингари эркинлик нашъасини кемира-кемира илгари босадилар. Симёғочларнинг учларида якка-якка қушлар кўрина бошлади. Биринчи кўринган кўклам қуши биринчи ёрилган бодроқ нашъасини беради. Бултур экилиб, кўп қошларни қорайтирган ўсма илдизидан яна бош кўтариб чиқди... Мулойим қўлларда ивиб, сувга айлангандан кейин гўзал кўзларнинг супасида ёнбошлашни мунча яхши кўрар экан бу кўкат! Эркакларнинг гуллик дўпписига тегмай, яланг аёллар билан, уларнинг сочлари, гажаклари ва рўмол попуклари билан ҳазиллашиб ўйнаган салқин шабада... кўклам нашъаси билан шўхлик қилади. Ҳаёт нега бу қадар гўзал ва ширин бўлади баҳорда?”¹⁷⁶

“Зеби (Зебиниса)нинг қиш ичи сиқилиб, занглаб чиққан, кўнгли баҳорнинг илиқ ҳовури билан очила тушган; энди, устига похол тўшалган аравада бўлса ҳам, аллақайларга, дала-қирларга чиқиб яйрашни тусай бошлаган эди”¹⁷⁷. Романнинг бу мисралар билан бошланиши асарнинг бош қаҳрамони Зебинисанинг беғубор қалби, гўзал одоби ва қизларча самимий туйғуларига ишора қилади. Ушбу асарда муаллиф табиат манзарасини таҳлил марказига кўтаради. Қаҳрамоннинг ички дунёси ва яшаш тарзини бақамти умумлаштиради. Отасининг қизига нисбатан ўта талабчанлиги, қизининг хурсандчилигини ўйлаган онаси Қурвонбибининг рухсати нималарга олиб келмади...

Аравада кетаётган Зеби дугоналар кулгиси, айтилаётган ёр-ёрлар таъсирида ўз мувозанатини йўқотиб, отасининг маслаҳатини унутиб, кўшиқ бошлаб юборади.

Бу ўринлар таҳлил давомида ўқувчилар билан мунозарали саволлар асосида янада очилади, уларнинг фикри тингланади, бугунги ҳаёт билан боғланади, хулосалар берилади.

Юқори синфларда бадий асар тилини ўрганишда пейзаж тасвирига ҳам эътибор қаратилади. Ўқитувчи ёзувчи табиат манзарасини маълум мақсадда тасвирлашини, дунёқараши, асарда акс эттирилган воқеа ва образларга бўлган муносабатини англаб олишда пейзажнинг ўрни муҳимлигини қайд этиш билан бирга пейзажни тасвирлашда тил хусусияти, ёзувчининг мақсадини аниқлаб олишда тил, тасвирий восита ва бадий ифодалар катта аҳамиятга эга эканлигини ҳам баён этади. “Қайта ўқишда асарнинг янгидан-янги қирралари очилиб боради. Бир ўқилганда эътиборсиз ўтилган тасвир ва эпизодлар бошқа сафар диққатни тортади. Бу ҳол, табиийки, адибнинг образ яратиш маҳоратига, инсон қалбини чуқур англашига, воқеа-ҳодисалар баён усулига тегишлидир. Зеро, адабиётдек сўз санъати учун бадий тил жуда муҳим саналади; сўз воситасида

¹⁷⁶ Чўлпон. Асарлар. II жилд. “Кеча ва кундуз” романи. Тошкент.Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1993 йил. 5-бет.

¹⁷⁷ Чўлпон. Номи тилга олинганасар, 4-бет.



образлар, манзаралар, туйғулар сувратлантирилади,”¹⁷⁸– деб ёзади Абдулла Қодирий асарлари тадқиқотчиси, адабиётшунос олим Баҳодир Карим.

Демак, бадий асарларда қаҳрамон туйғуларининг табиат тасвири билан уйғунлиги ифодасини ўрганиш масаласи ёшларнинг бадий асарлар мазмунини, асар қаҳрамонлари руҳиятини, воқеа-ҳодисалар содир бўлган муҳитни янада чуқурроқ англашида, адибнинг маҳоратини баҳолашида зарур туртки вазифасини бажаради. Асарни чуқур мушоҳада юритиб таҳлил қилишга йўллайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. I жилд. 1988 йил.
2. Ҳошимов Ў. Танланган асарлар. -Тошкент: Шарқ. 2009, I жилд, 23-б.
3. Ҳошимов Ў. Танланган асарлар. -Тошкент: Шарқ. 2009, I жилд, 23-б.
4. . Karimov B. Radloff W. Die alttürkischen Inschriften der Mongolei. Neue Folge. St.-Pbg.: 1894. – P. 460.

O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Р.Нуёзметова

TDO'TAU professori, ped.fan.doktori

Yashnobod tumuni 230-maktab o'qituvchisi R.K.Ashrafxonova

Rezyume

Адабиёт дарсларида бадий матн устидagi ишларни ташкил этиш ва амалга оширишда еришилadiган самарадорlik talim metodlarini to'g'ri tanlashga bevosita bog'liqdir. Ushbu maqolada talim metodlari, metodlar rasida ishlab chiqiladigan usullar o'quvchilarning o'quv-biluv va amaliy faoliyatini takomillashtirishi, o'z bilimlarini mustaqil boyitib borish malakalarini egallashlariga erishish masalalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: metod, usul, adabiy tayyorgarlik, muammoli talim, izlanish, tadqiqot, ijodiy o'qish, mustaqil mutolaa, evristik suhbat, reproduktiv, izohli o'qish, yangicha tizim, badiiy idrok, interfaol.

Адабиёт дарсларида бадий матн устидagi ишларни ташкил этиш ва амалга оширишда еришилadiган самарадорlik talim metodlarini to'g'ri tanlashga bevosita bog'liqdir. Turli-tuman metodlar orasidan eng mosi va xosini ajratish, bunda yangi pedagogik texnologiyani ham nazardan qochirmaslik kerak. Lekin amaliyotda ayni shu yumushlar muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitish metodikasida metodlar tadqiqiga alohida etibor beriladi.

¹⁷⁸ Karimov B. Radloff W. Die alttürkischen Inschriften der Mongolei. Neue Folge. St.-Pbg.: 1894. – P. 460.



N.I.Kudryashov, R.R.Mayman, E.N.Ilin, M.G.Kachurin, M.A.Zaldiner, L.V.Todorov, K.T.Golenkinalar yuqori sinflarda rus adabiyotini o'qitish metodlarini yoritganlar. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasida badiiy asarlarni o'rganish shakl, vosita va metodlari atroflicha keng va chuqur yoritilgan. Bu boylikni yaratishda A.Zunnunov, S.Ismatov, T.Boboev, Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, S.Matchonov, F.Badriev, A.Tojiev, Q.Husanboeva va boshqa metodist olimlarning xizmatlari katta. Adabiyot o'qitishni davr talablari darajasiga ko'tarish ishiga U.Normatov, N.Karimov, A.Kattabekov, B.To'xlijev, O.Madaev, B.Karimov, V.Qodirov singari olimlarning qo'shgan hissalarini ham katta.

Badiiy asarlarni o'quvchi, talabalarga o'qitishda bu xazinani bilgan holda undan zarurlarini, o'qituvchi o'z tajribasida qo'llay oladigan, o'quvchi ko'tara oladiganlarini ajratish, *o'ziga yarasha yangicha bir tizim holiga keltirib foydalanish* muhim sanaladi. Zero, o'qituvchi mudom metodlarni noto'g'ri tanlab dars bersa, o'quvchilar yo ana shu noto'g'ri tanlangan metodlar bilan qurollanadilar, yoki bu metodlarni qabul qilmaydilar, natijada o'qishda malakasiz bo'lib qolaveradilar.

Metodlar darsning turi, maqsad va vaziflari bilan ham chambarchas bog'liqdir. «Metod voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli»dir.

Suhbat- savol va javob shaklidagi dialogik talim metodi. Suhbat metodi fanga qadimdan malum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat talim jarayonida ko'p funktsiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbatning vazifasini belgilab, unga tayyorlanish davomida o'qituvchi o'quvchilar oldiga vazifa qo'yib, masalani mustaqil ravishda, to'g'ri hal etishga yordam beradigan savollar tuzadi. Suhbat metodi adabiy talimning barcha bosqichlarida: kirish darslarida ham, badiiy asarni o'zlashtirishda ham, uning tahlili mobaynida ham, yakunlovchi bosqichida ham qo'l keladi.

Shuni hamisha yodda tutish kerakki, adabiy mavzularda o'tkaziladigan suhbatlar o'qituvchilarni asosiy vazifadan: adabiy asar asosida o'quvchilarni ro'yaviy, axloqiy va estetik tarbiyalashdan chetga olib ketmasligi kerak.

Suhbatlarni bahs-munozara tariqasida tashkil etishning talimiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Bahs-munozara o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, ularda yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Yoshlar asar qahramonlarining xulqi, xatti-harakatlarining sabablari, maqsadlari haqida bir-birlariga nisbatan odob rasida muloqotga kiradilar. Bir tomondan, o'z fikrlarini asoslash va himoya qilish payida bo'ladilar, ikkinchi tomondan, o'z qarashlarini, etirozlarini samimiy tarzda ifodalashga intiladilar. Bunday bahs-munozaralarda o'quvchilar berilib qatnashadilar. Shubhasiz, bunday usulning muvaffaqiyati



ularni to'ldiradigan, faol fikrlashga undaydigan savollar berilishiga bo'liq. Albatta, F.Badrievning fikricha, bahs-munozara uchun tanlangan masala o'quvchilarning bilim saviyasiga mos kelishi, xohish-istaklari va qiziqishlarini hisobga olishi, daftarga qaramay so'zga chiqishlariga imkon berishi dardor¹⁷⁹

Maruza - yirik hajmdagi o'quv materialini o'zaki bayon qilish metodi sanalib, u qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimlilik kabi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Maruza butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Maruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqtda o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi.

Maruza o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltiradi, mavzuga r bilimlarni beradi va ularni tatbiq qilish qobiliyatini rivojlantiradi, asl yoki etakchi ro'yan boshqalaridan ajratib olishga o'rgatadi. Shu bois ham akademik A.N.Kononov O'zMU professor-o'qituvchilari bilan davra suhbatida aytganiday: «O'qitishning hech bir ko'rinishi yaxshi maruza o'rnini bosa olmaydi».

Taqqoslash, qiyoslash metodi. Bu ham yangi bilim va tushunchalarni o'zlashtirishda keng qo'llaniladigan talim metodi hisoblanadi. Yangi o'zlashtiriladigan bilimlarni avvalgilari bilan taqqoslash usuli, o'z navbatida, yangi tushunchalarni mustaqil ravishda tadqiq qilishning bir ko'rinishidir. Taqqoslash metodi asosida o'quvchilarda sinfdoshlarining hisobot va dalillariga o'zlarining mantiqiy qarashlarini qarshi qo'yishga intilishlari yotadi.

Mavzularni taqqoslash asosida isbotlashning o'qituvchi tomonidan o'quv materialini tanlash ham, uning o'quvchilar tomonidan egallanishi ham juda qiyin kechadi. Sababi, bu usuldan hamisha har xil vaziyatlarda, holatlarda foydalanishga to'g'ri keladi. Qiyin mavzularni taqqoslab o'zlashtirish bilim egallashda unchalar qiynalmaydigan o'quvchidan ham anchagina fikriy zo'riqishni talab qiladi. Adabiyot darslarida bu metoddan foydalanilganda o'qituvchi o'quvchilardan matnda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni taqqoslash bilan isbotlab ko'rsatishni talab qilishi ham mumkin. O'qituvchi tomonidan shunday savol yoki masalaning qo'yilishi, farazlarning ilgari surilishi, ulardan birining to'g'riligini isbotlash fikrlar to'qnashuvi asnosida amalga oshiriladi, mustaqil faoliyat asosida mustahkamlanadi. Bu metod ham bilimli o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib ko'p vaqt, bilim va malaka talab qiladi. Bu metoddan "O'tgan kunlar" romanidagi Kumushbibi va Zaynab timsollarini, "Dunyoning ishlari" asaridagi ona timsoli bilan "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidagi ona timsoli va hokazo qator obrazlarni taqqoslab o'quvchilarni inson shaxsini o'rganishga, fazilatlarini ochishga o'rgatish mumkin bo'ladi.

Induktiv va deduktiv metod. Deduktiv metod – tayyor, umumiy nazariy bilim berishdan boshlanib, bosqichma-bosqich rivojlanishdan xulosa chiqaradi,

¹⁷⁹ Бадриев Ф. Методы и формы организации внеклассного чтения по литературе в старших классах (На материалах школ Узбекской ССР). – АКД.пед.наук. – Т., 1969. Ўша жойда 20-бет.



shu orqali hayotiy ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. **Induktiv** metod amaliy mashqlar orqali nazariy bilim berishga yo'naltiradi.

O'quvchini mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatishda talimning induktiv, deduktiv metodlarining ham o'ziga xos o'rni bor. So'nggi yillarda deduktiv talimga etibor kuchaydi. Bu talimdan induktiv yondashuvni chetlatish degani emas, albatta. Tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib talimda yoki mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatishda muvaffaqiyatlarga umid qilish mumkin emas. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo'llash o'rganilayotgan o'quv materialining mantirini ajratishda, yani xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o'tishda ahamiyat kasb etadi. Yu. Babanskiy induktiv metodni qo'llaganda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining quyidagi ikki varianti mavjudligini ko'rsatadi: birinchi variantda o'qituvchi avval faktlarni keltiradi, tajribani, ko'rgazma materialini namoyish etadi, topshiriqlarni bajarishni tashkil etadi, o'quvchilarni asta-sekinlik bilan tushunchalarni aniqlashga, qonuniyatlarni o'zlashtirish va fikrlarni umumlashtirishga olib boradi. O'quvchilar xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, so'ngra o'quv xarakteridagi umumlashma xulosalarni chiqaradilar. Ikkinchi variantda o'qituvchi o'quvchilarning oldiga xususiy jihatlardan umumiy holatlarga etaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masalalarni qo'yadi. O'quvchilar faktlar ustida mustaqil ravishda mulohaza yuritadilar va xulosalar chiqarib, umumlashmalar qiladilar¹⁸⁰.

Bugungi adabiy talimda o'quvchi manaviy kamolotini taminlash maqsadida mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga undash etakchilik qilayotgan ekan, induktiv metodning birinchi varianti mutlaqo to'firi kelmaydi. Ikkinchi variant – o'qituvchining xususiy jihatlardan umumiy holatlarga etaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masalalarni qo'yishi va o'quvchilarning haqiqatlar ustida mustaqil ravishda mulohaza yuritib, xulosalar chiqarib, umumlashmalar qilishi – ko'proq samara beradi. Induktiv metodning zaif tomonlari shundan iboratki, unda yangi mavzuni o'zlashtirishda deduktivga nisbatan ko'proq vaqt talab qilinadi. Bu metod o'quvchining mavhum tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi. Maktab adabiy talimida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish uchun quyi sinflarda induktiv metodidan foydalanib, sinflar yuqorilab borgani sari asta-sekinlik bilan deduktivga o'tish o'rinliroq bo'ladi. Chunki quyi sinflarda narsa, hodisa va bilimlarning ko'proq xususiy tomonlari o'rganiladi.

Talim metodi tushunchasi o'qituvchi tomonidan o'quvchining o'rganish obekti ustidagi faoliyatini tashkil etishi va buning natijasida o'quvchi tomonidan talim mazmunini o'zlashtirish jarayonining amalga oshirishini anglatadi. Talim metodlari rus metodistlari tomonidan 1.Ijodiy o'qish. 2.Evristik metod. 3.Tadqiqot metodi. 4.Reproduktiv metod tarzida tasnif etilgan.

¹⁸⁰ Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе. – Москва: «Провещение», 1985. -150-153-б.



Ijodiy o'qish metodi adabiyot darslarida o'qituvchining ifodali o'qishiga, badiiy so'z ustalarining o'qishiga, pesalardan ayrim sahnalarni aktyorlarning o'qishiga (magnit yozuvi orqali, radio- va teleeshittirishlarda) tez-tez murojaat etib turiladi. Bu metod tarkibiga quyidagi *ish usullarini* kiritadilar: o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish, o'qituvchining badiiy matnni sharhlab o'qishi (izohli o'qish) hamda ularning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini taminlash maqsadini ko'zda tutadi.

Adabiy materiallarni o'rganishda, bir tomondan, ijodiy ish turlariga, ikkinchi tomondan, talabalarning mustaqil mutolaa bilan bog'liq ruhiy sifatlarini rivojlantirishga, adabiy tayyorgarlik darajasini oshirib borishga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Metodlar darsning turi, maqsad va vaziflari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Adabiy materialning mazmuni uni etkazish shakli haqida o'ylashga majbur qiladi. Masalan, adabiy-nazariy tushunchalarni o'quvchilarga etkazish yo'llari haqida o'ylab ko'raylik. Bu jihatdan prof. Q.Yo'ldoshevning quyidagi fikri etiborga loyiq: "Endilikda adabiyot nazariyasi bo'yicha beriladigan bilimlar ham o'quvchilar tafakkurini sinash va uni qiynash vositasi emas, balki badiiy asarni o'qish va tahlil etishga ko'mak beradigan malumotlar tarzida qaraladigan bo'ldi... Aslida, adabiyot tarixiga daxldor biror faktni sharillatib aytib bera oladigan, ammo manaviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ayrim adabiy faktlarning xronologiyasini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos eng insoniy fazilatlarini o'z tabiatiga singdirib ola bilgan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir."¹⁸¹

Asarni o'zlashtirish odatda kishining o'zida paydo bo'lgan savollarni, yo axloqiy, yoki ijtimoiy, yohud badiiy muammolarni anglab etishi, hal etishga intilishi bilan bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchilarga ushbu muammolarni aniqlash, ularni hal etish yo'llarini topishga yordam beradi; asarni tahlil qilishga, janr xususiyatlari rang-barang bo'lgan holatida yaxlit bir butunligini tushunishga o'rgatadi, mushohada yuritish, o'z o'ylarini obrazli so'zlar orqali, bo'flanishli, izchil, isbot qiluvchi nutq shaklida o'zaki yoki yozma ifodalash ko'nikmalarini hosil qilish sari yo'naltiradi. Bunga *evristik metod* yordam beradi.

Evristik metod. Bu metod evristika yunoncha izlayman, topaman degan manolarni anglatadigan "heurisko" so'zidan olingan bo'lib, u mahsuldor ijodiy fikrlash jarayonini tashkil qilishni nazarda tutadi. Talimning mustaqil fikrlashga undashda qo'l keladigan evristik metodi o'quvchining oldiga yo'naltiruvchi masalalar qo'yish, ularni tekshirish va hal etish, aks savollar vositasida o'qitish usuli hisoblanadi. Evristik metoddan foydalanganda o'qituvchi o'quv materialining suhbat metodida foydalangan tizimini to'liq qo'llashi mumkin. Faqat uning tarkibi qo'shimcha bilim olishga yo'naltiradigan savollar bilan to'ldiriladi. Mazkur metod tahlili shuni ko'rsatadiki, u suhbat metodida bo'lgan

¹⁸¹ Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. Доктори... дисс. – Тошкент: 1997. 77-88– бетлар.



barcha usullarning birgalikda qo'llanilishini talab qiladi. Bunda savol-topshiriqlarning mantiqi va vaqt masalasida bir oz tafovut bo'ladi. Evristik metodda yetakchilik qiladigan savollar qo'zg'otuvchi ahamiyat kasb etadi. Evristik metoddan foydalanib talim jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchi faoliyati: xabardorlikni talab qiluvchi savollar qo'yish, taqqoslash uchun materiallar taqdim etish, o'quvchini loqaydlikdan, muvozanatdan chiqaruvchi savollar berish, farazlarni ilgari surish, ularni tasdiqlovchi tajribalar qilish, kuzatish uchun topshiriqlar berish, tahlilga yo'naltirish, qiyoslash va taqqoslash uchun murakkab amaliy topshiriqlar berish, muammoli savollar qo'yish, muammoli vaziyatlar hosil qilish kabilardan iborat bo'ladi.

Evristik metodlar talimning ochiq shaklini ko'zda tutib, bir xil majburiy yakunga, yagona to'g'ri javobga kelishni talab etmaslik lozim.

Tadqiqot metodi. Adabiyot o'qitishda o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltirishda tadqiqot metodi o'quv jarayonida bir muncha qiyin bo'lgan nazariy yo'nalishdagi masalalar ko'tarilishini nazarda tutadi. Bu metodda bilim olishning nisbatan yuqori bosqichida talimning samarali amaliy va izlanish usullarini mustaqil ravishda qo'llash talab qilinadi. Bunda o'quvchilar dalillar to'plash va ularni nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish kabi amaliy ishlarini bajaradilar. Bu metodning maqsadi – o'quvchilarni adabiy asarni mustaqil o'rganishga, ularning g'oyaviy va badiiy qiymatini baholay bilishga tayyorlash, ularni baholash meyorlarini ishlab chiqish, badiiy didni takomillashtirish. Bu metod evristik metodga yaqin, birining ikkinchisidan jiddiy farqi o'qituvchining talim beruvchilik roli hamda o'quvchilarning o'quv, biluv faoliyatidagi tafovutlarda ko'rinadi. O'qituvchi butun sinf oldiga umumiy muammo qo'yadi, bunda ushbu muammoning bir qator qirralarini o'quvchilar guruh bo'lib yoki yakka tartibda ishlab chiqadilar.

Reproduktiv metod ham faol o'quv faoliyatini talab etadi: o'quvchilarga etkazilayotgan bilimlarning xarakteri mexanik yodda saqlab qolishni emas, balki ongli o'zlashtirishni talab etadi. Bundan tashqari, bilimlarning mustahkamligi ham yodda olib qolishga bo'lgan ko'rsatmagagina emas, balki fikrlash faoliyati jadalligiga ham bog'liqdir. Metodist olim N.I.Kudryashov reproduktiv metodda o'quvchilar bajaradigan faoliyat turlariga "o'qituvchi maruzasining rejasi va konspektini yozib borish, darslikdan o'qilgan maqolalar, tanqidiy maqolalarning rejasi, konspekti yoki tezislarini tuzish, sinxronik jadvallar tuzish; o'qituvchining maruzasi, darslik, o'quv qo'llanmalari bo'yicha barcha mavjud materiallardan foydalangan holda umumlashtiruvchi tavsifdagi maruzalar, referatlar, insholar tayyorlash"¹⁸² kabi ish turlarini kiritadi.

Bir metod rasida bajariladigan amallar, o'quvchilar ko'rsatadigan faoliyat turlari operatsiyalar ko'rinishida izchil, lekin mustaqillik va uni ijodiy ijro etishdagi o'sib boruvchi bosqichlilik asosida amalga oshiriladi. Shunday

¹⁸² Кудряшов Н.И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы: Пособие для учителя. - М.: Просвещение, 1981. - 65 с.



bo'lgach, talim metodi ham muqarrar ravishda bir metod rasidagi o'quvchi ko'rsatadigan faoliyat bosqichlariga monand tanlanadi. Bazan har bir bosqich alohida metod holida ish olib borishni taqozo etishi ham mumkin.

Ta'lim metodini nima bilan bog'lash kerak degan savol tug'iladi. Shubhasiz, metod adabiy asarni o'rganish bosqichlari, o'quv-biluv jarayonining mantiqi, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati, ularning adabiy talimini chuqurlashtirish mantig'i bilan tanlanadi. Umuman, metodlarning bir qismi asarni o'qib badiiy idrok etish, yana bir qismi adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish bilan bog'lanadi.

Olmon metodistlari esa 1977 -yilda chop etilgan "Olmon adabiyotini o'qitish metodikasi" nomli fundamental tadqiqotda talim metodlarini o'quvchilar tomonidan badiiy asarni o'zlashtirishning 1.Dastlabki qabul qilish. 2.Asarni chuqur idrok etish. 3.Badiiy matnni takror idrok qilish va uning yangi aloqadorlik jihatlarini topish singari uch bosqichiga muvofiq 1.Ijodiy qabul qilish metodi. 2.Tahlil va talqin qilish metodi. 3.Umumlashtirish metodi tarzida sinflarga bo'lingan.

Chet til o'qitish metodikasida¹⁸³ butun bir yo'nalish: tarjima metodi, to'g'ri metod, qiyosiy metod, aralash metodlarga, ikkinchidan shu yo'nalish tarkibiga kiruvchi Fransua Guen metodi, Harold Palmer metodi, Maykl Uest metodi, uchinchidan, muallim va o'quvchining o'zaro bog'langan faoliyat usuli (tanishish, mashq qilish, va qo'llash metodlari). Chet tili o'qitish metodikasida birinchi va ikkinchisi, odatda, tarixiy metodlar, uchinchisi esa "chet tili o'qitishda jarayon metodlari" termini bilan yuritiladi.

Chet tili o'rganishda qiyosiy metod qiyoslash, ona tiliga suyanib ish ko'rish, nutq faoliyati turlarini bir yo'la o'rgatish singari ish turlari amalga oshiriladi. Hozirgi kunda bu metod zamonaviylashtirilib, yangi talablarga tatbiq qilinib dars paytidagi yumush tarzida emas, balki mashqlar sistemasini tuzishda metodist va muallim vakolatiga kiradigan ishdir.

Germaniyada o'qitish metodlarida: faol ishtirok etish, hissa qo'shishga jazm qilmoq, bilimingizdan foydalaning, muvaffaqiyatli o'rganish tajriba kabi turlari mavjud. Germaniyada FUBIS mashg'ulotlari (18 nafar talaba) faol ishtirok etish kursining markaziy qismiga aylangan. Talabalar mashg'ulotlarda bahs-munozaralar, og'zaki taqdimotlar, noaniqliklar bo'yicha savol-javoblar orqali faol ishtirok etishi, o'z hissasini qo'shishi, xato qilib qo'yishdan qo'rqmasligi zarur. Kurs topshiriqlarining boshqa bir qismida esselar (insholar) yozish, savol-javoblar o'tkazish, yangi orttirgan bilimlarni ishlata bilish, yakuniy dasturda esa talabalarning ijodkorligini ko'rsatishga imkoniyat yaratish mumkin.

Adabiy talimning kuzatish, so'rov, tabiiy sinov, laboratoriya eksperimenti, maktab hujjatlarini o'rganish, o'quvchilarning yozma ishlarini tadqiq etish, og'zaki javoblarni tekshirish singari ilmiy-tadqiqot metodlari mavjud.

¹⁸³ J.Jalolov. Chet tilini o'qitish metodikasi: chet tillar o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik/ J.J.Jalolov – Toshkent: O'qituvchi,2012. – 432b.



O'qitish metodlarining samaradorligida talim mazmunini tashkil etuvchi dastur va o'rganish tavsiya etilgan asarlarning talqini, darslikdagi o'quv materialining saviyasi bilan birga o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabat ham katta ahamiyat kasb etadi. Talim mazmunining o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi didaktik faoliyati bilan uyg'unligi metodning samaradorligini taminlaydigan asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе. – М.: Провещение, 1985. -150-153-с.
2. Бадриев Ф. Методы и формы организации внеклассного чтения по литературе в старших классах (На материалах школ Узбекской ССР). – АКД.пед.наук. – Ташкент, 1969.
3. Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. Доктори... дисс. – Тошкент, 1997. -77-88– б.
4. Кудряшов Н.И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы: Пособие для учителя. - М.: Просвещение, 1981. - 65 с.
5. J.Jalolov. Chet tilini o'qitish metodikasi: chet tillar o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik/ J.J.Jalolov – Toshkent: O'qituvchi,2012. – 432 b.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/ALPY5519

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ “ЎТКАН КУНЛАР” ВА ТЎЛАГАН
ҚОСИМБЭКОВНИНГ “СИНГАН ҚИЛИЧ” АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР
ДАВРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ**

Исманова Акибатхан Алимжановна
Ўш давлат университети доценти, ф.ф.н.
akibat@ihdox.ru

Аннотация: Мақолада Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” ва Тўлаган Қосимбековнинг “Синган қилич” асарларида XVIII аср охири ва XIX аср бошларида Қўқон хонлиги инқирозининг сабаблари, ҳамда Россия империясининг Туркистонни истило қилишидаги тарихий воқеликлар таҳлилга тортилди. Бу икки асар мавзуси, жанри, тарихий жараёнга муносабати, тарихий шахслар тасвири жиҳатдан ўхшаш бўлиб, мамлакат ичкарасидаги низолар ва рус босқини ҳаққоний тарихий фактлар асосида ёритилган. Мақолада икки асардаги тарихий воқеликлар Муслмонкул истибдоди, “қипчоқ қирғини”, тахт учун куршлар мамлакат равнақини эмас, балки шахсий манфаатлар учун сиёсий қуролга айланганлиги талқин қилинди.

Калит сўзлар: хонлик, қипчоқ, қирғин, истибдод, тарих, империя.

Аннотация: В статье рассматриваются причины кризиса Коканского ханства в конце XVIII - начале XIX веков, а также освещение исторических событий завоевания Туркестана Российской империей в произведениях “Минувшие дни” Абдуллы Кадири и «Сломанный меч» Толагана Касымбекова. Эти два произведения схожи по теме, жанру, отношению к историческому процессу, изображению исторических личностей, внутренних конфликтов и российского нашествия, изображенных на основе реальных исторических фактов. В статье интерпретировано, что исторические реалии двух



<i>NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA</i>	
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803
VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	
<i>Р.Нуёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809
<i>Р.Нуёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ “ЎТКАН КУНЛАР” ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ “СИНГАН ҚИЛИЧ” АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825
<i>To'uchiyeva Mahfuza Umarmkulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQUIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	852
<i>Abdixoligova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING “SEHRLI TAYOQCHASI”: FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR TAHLILI</i>	862
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5–6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875

